RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI: BIBLIOMETRIK TAHLIL

Ashurova Zuxra Yusupovna
“Raqamli iqtisodiyot va moliya” kafedrasi mustaqil izlanuvchisi (PhD)
https://doi.org/10.5281/zenodo.21299437

Annotatsiya. *Raqamli transformatsiya va yashil iqtisodiyotga o‘tish global barqaror rivojlanishning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu tadqiqot 2019–2026-yillarda Scopus bazasidan olingan 344 ta ilmiy maqolani bibliometrik va sistematik tahlil qilish orqali raqamli transformatsiya sharoitida yashil iqtisodiyotga o‘tishning iqtisodiy samaradorligini baholaydi. Tahlil natijalari raqamli texnologiyalar va yashil innovatsiyalar o‘rtasida kuchli sinergiya mavjudligini, yashil transformatsiyaning muvaffaqiyati institutsional muhit va texnologik tayyorgarlikka bog‘liqligini ko‘rsatdi. Tadqiqot mavjud ilmiy bo‘shliqlarni aniqlab, makroiqtisodiy siyosat uchun amaliy tavsiyalar beradi.*

Tayanch iboralar: *raqamli transformatsiya; yashil iqtisodiyot; iqtisodiy samaradorlik; makroiqtisodiy tahlil; yashil innovatsiyalar; raqamli iqtisodiyot; barqaror rivojlanish; bibliometrik tahlil; sistematik adabiyotlar sharhi.*

INTRODUCTION

So‘nggi yillarda raqamli transformatsiya va yashil iqtisodiyot global iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchlariga aylandi. Iqlim o‘zgarishi, resurslar tanqisligi va uglerod emissiyasining ortishi davlatlar oldiga iqtisodiy o‘sishni saqlab qolgan holda ekologik barqarorlikni ta’minlash vazifasini qo‘ymoqda. Sun’iy intellekt, Big Data, IoT va boshqa raqamli texnologiyalar esa energiya samaradorligini oshirish va yashil innovatsiyalarni rag‘batlantirish imkonini beradi.

Ushbu tadqiqot 2019–2026-yillarda Scopus bazasidan olingan 344 ta ilmiy maqolani bibliometrik va sistematik tahlil qilish orqali raqamli transformatsiya sharoitida yashil iqtisodiyotga o‘tishning iqtisodiy samaradorligini o‘rganadi. Mavjud adabiyotlar asosan yashil innovatsiyalar, uglerod emissiyasini kamaytirish va korporativ transformatsiyaga qaratilgan bo‘lib, makroiqtisodiy darajadagi kompleks baholashlar yetarli emas.

Tadqiqotning maqsadi – raqamli transformatsiya va yashil iqtisodiyot o‘rtasidagi sinergiyani aniqlash, ilmiy bo‘shliqlarni belgilash hamda makroiqtisodiy siyosat uchun tavsiyalar ishlab chiqishdir. Tadqiqotning ilmiy hissasi mavjud bilimlarni tizimlashtirish va barqaror rivojlanish strategiyalarini takomillashtirishdan iborat.

METHODS

Mazkur tadqiqot raqamli transformatsiya sharoitida yashil iqtisodiyotga o‘tishning iqtisodiy samaradorligini baholash maqsadida bibliometrik tahlil va sistematik adabiyotlar sharhi usullaridan foydalandi. Ma’lumotlar manbai sifatida Scopus xalqaro ilmiy bazasidan 2019–2026-yillar oralig‘ida chop etilgan 344 ta ilmiy nashr (n=344) tanlab olingan. Tanlov jarayonida raqamli

transformatsiya, yashil iqtisodiyot, yashil innovatsiyalar, uglerod emissiyasi, ekologik samaradorlik va barqaror rivojlanish mavzulariga bevosita aloqador ingliz tilidagi Scopus indekslangan maqola, konferensiya materiali va kitob bo‘limlari kiritildi. Takroriy yozuvlar, mavzuga tegishli bo‘lmagan ishlar va to‘liqsiz annotatsiyali nashrlar chiqarib tashlandi.

Tahlil besh bosqichda amalga oshirildi: ma’lumotlar bazasini shakllantirish, bibliografik ma’lumotlarni tozalash va standartlashtirish, nashr dinamikasi (yillar, jurnallar, mamlakatlar), mualliflik va iqtibos ko‘rsatkichlarini baholash, kalit so‘zlarning birgalikda uchrash chastotasi asosida tematik klasterlarni aniqlash hamda natijalarni mazmuniy sintez qilish. Barcha ma’lumotlar CSV formatida qayta ishlanib, kalit so‘zlar birxillashtirildi. Ushbu yondashuv mavzuning ilmiy evolyutsiyasini, asosiy tendensiyalarini va mavjud bo‘shliqlarni kompleks baholash imkonini berdi.

RESULTS

Mazkur tadqiqotda raqamli transformatsiya va yashil iqtisodiyotga oid ilmiy adabiyotlarning rivojlanish dinamikasi, mavzuning konseptual tuzilishi hamda asosiy tadqiqot yo‘nalishlari baholandi.

1-jadval. Hujjat turlari bo‘yicha taqsimot

Hujjat turi	**Soni**	**Ulushi (%)**
Article	252	73.3
Conference Paper	35	10.2
Book Chapter	32	9.3
Book	14	4.1
Review	8	2.3
Boshqa	3	0.8
Jami	344	100

1-rasmda ko‘rinishicha, nashrlar soni 2019-yildagi 1 tadan 2025-yilda 140 taga yetgan. 2023-yildan boshlab ilmiy qiziqish keskin oshgan bo‘lib, barcha nashrlarning 81,9% i so‘nggi uch yilga (2024–2026) to‘g‘ri keladi.



2-jadval. Nashrlar sonining yillar bo‘yicha taqsimoti

2-jadval natijalari mavzu bo‘yicha eng faol ilmiy nashr manbalarini aks ettiradi.

2-jadval. Eng faol jurnallar

Jurnal	**Maqolalar soni**
Sustainability	62
Journal of Environmental Management	26
Boshqa jurnallar	256

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli transformatsiya mavzuning markaziy tushunchasi hisoblanadi. Xitoy ushbu yo‘nalishda yetakchi mamlakat bo‘lib, 193 ta nashr bilan umumiy hajmning yarmidan ortig‘ini tashkil etadi. Umumiy iqtiboslar soni 4459 tani tashkil etdi (o‘rtacha 12,96 ta maqolaga).

Natijalar raqamli transformatsiya, yashil innovatsiyalar va barqaror rivojlanish mavzulari ilmiy adabiyotlarda dominant ekanligini va so‘nggi yillarda bu yo‘nalishning jadal rivojlanayotganligini tasdiqlaydi.

DISCUSSION

O‘tkazilgan bibliometrik va sistematik tahlil raqamli transformatsiya va yashil iqtisodiyot o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik so‘nggi yillarda ilmiy tadqiqotlarning eng faol yo‘nalishlaridan biriga aylanganini tasdiqladi. Nashrlar sonining 2023-yildan keyin keskin o‘sishi (81,9% so‘nggi uch yilga to‘g‘ri kelishi) mavzuning dolzarbligini ko‘rsatadi. “Digital transformation” kalit so‘zi eng

yuqori chastotada (136 marta) uchrashi esa raqamli transformatsiyaning markaziy o‘rin tutishini bildiradi.

Natijalar raqamli texnologiyalar yashil innovatsiyalar, energiya samaradorligi va uglerod emissiyasini kamaytirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Biroq mavjud tadqiqotlarning aksariyati korxona va tarmoq darajasiga qaratilgan bo‘lib, makroiqtisodiy samaradorlik masalasi yetarli darajada o‘rganilmagan. Xitoyning yetakchiligi institutsional qo‘llab-quvvatlash va texnologik tayyorgarlikning muhimligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning asosiy ilmiy bo‘shliqlari:

Makroiqtisodiy darajada kompleks empirik modellar yetishmasligi;

Uzoq muddatli ta’sirlarning kam o‘rganilganligi;

Rivojlanayotgan mamlakatlar kontekstidagi tadqiqotlarning kamligi.

Ushbu tadqiqot mazkur bo‘shliqlarni qisman to‘ldirishga xizmat qiladi va raqamli-yashil transformatsiyani birgalikda boshqarish bo‘yicha siyosat tavsiyalarini beradi.

CONCLUSION

Mazkur tadqiqot raqamli transformatsiya sharoitida yashil iqtisodiyotga o‘tishning iqtisodiy samaradorligini bibliometrik va sistematik tahlil asosida baholadi. 344 ta ilmiy nashrning tahlili shuni ko‘rsatdiki, raqamli transformatsiya va yashil iqtisodiyot o‘rtasidagi sinergiya so‘nggi yillarda (ayniqsa 2023-yildan keyin) ilmiy tadqiqotlarning eng faol yo‘nalishlaridan biriga aylangan.

Asosiy xulosalar:

Raqamli texnologiyalar yashil innovatsiyalar va uglerod emissiyasini kamaytirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda;

“Digital transformation” mavzuning markaziy tushunchasi hisoblanadi;

Xitoy ushbu yo‘nalishda yetakchi mamlakat sifatida namoyon bo‘lmoqda;

Mavjud tadqiqotlarning aksariyati korporativ darajada bo‘lib, makroiqtisodiy baholashlar yetarli emas.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi raqamli va yashil transformatsiyalarni yagona tizim sifatida ko‘rib chiqish hamda makroiqtisodiy darajadagi bo‘shliqlarni aniqlashdan iborat. Amaliy ahamiyati esa davlat siyosati, korxonalar va tadqiqotchilar uchun raqamli-yashil integratsiyani kuchaytirish bo‘yicha tavsiyalar berishidadir.

Kelajak iqtisodiyoti samaradorligi nafaqat raqamlashtirish darajasiga, balki uning yashil va barqaror rivojlanish maqsadlari bilan uyg‘unligiga bog‘liq bo‘ladi.

REFERENCES

1. [1]. Bektasheva, A. D. (2025). Features of decarbonization processes in the conditions of digital economy development. *Advances in Science, Technology and Innovation*. Springer Nature.
2. [2]. Badran, A. (2024). Digital transformation: Inducing an innovative environment for sustainable development. In *Higher Education in the Arab World: Digital Transformation*.
3. [3]. Cui, D., Chen, M., & Liu, J. (2026). From carbon constraints to digital solutions: How climate governance drives corporate transformation in China. *Sustainability, 18*(1).

4. [4]. Dong, F., Hu, M., Gao, Y., Liu, Y., & Zhu, J. (2022). How does digital economy affect carbon emissions? Evidence from global 60 countries. *Science of the Total Environment, 852*, 158401.
5. [5]. Du, J., Shen, Z., & Song, M. (2023). Nexus between digital transformation and energy technology innovation: An empirical test of A-share listed enterprises. *Energy Economics, 120*, 106611.
6. [6]. Huang, C., & Lin, B. (2023). Promoting decarbonization in the power sector: How important is digital transformation? *Energy Policy, 182*, 113760.
7. [7]. Khan, I., Rehman, M. Z., & Khan, I. (2025). Optimizing natural resource management and global supply chains through digital innovation. *Technological Forecasting and Social Change, 210*, 123845.
8. [8]. Lai, K.-H., Feng, Y., & Zhu, Q. (2023). Digital transformation for green supply chain innovation in manufacturing operations. *Transportation Research Part E: Logistics and Transportation Review, 175*, 103185.
9. [9]. Li, C., & Zhou, W. (2024). Can digital economy development contribute to urban carbon emission reduction? Empirical evidence from China. *Journal of Environmental Management, 357*, 120687.
10. [10]. Liu, B., Qiu, Z., & Hu, L. (2024). How digital transformation facilitate synergy for pollution and carbon reduction: Evidence from China. *Environmental Research, 251*, 118745.